

6-dars. Misol va masalalar yechish



1. Ifodalang:

- a) **minutlarda**: 3 h, 6 h, 9 h, 10 h;
 b) **sekundlarda**: 2 min, 4 min, 6 min, 8 min;
 d) **soatlarda**: 1 d 5 h, 2 d 3 h, 5 d, 10 d.



2. Ustun ko'inishida hisoblang.

$$357 \cdot 8$$

$$2\,583 \cdot 9$$

$$29\,370 \cdot 6$$

$$429 \cdot 7$$

$$4\,245 \cdot 5$$

$$72\,803 \cdot 4$$

3. **Amallarning bajarilish tartibini** belgilang va ifodalarning qiymatini hisoblang.

a) $1\,576 \cdot 7 + 2\,070 \cdot 8 - 12\,346$

b) $9\,148 + 2\,785 : 5 - 1\,346$

d) $13\,824 + (7\,839 : 9 - 45) - 2\,346$

e) $40\,040 - 32\,768 : 8 + (182 : 2 + 45)$



4. Tenglamalarni yeching.

a) $y + 20 + 60 = 320$

b) $a + 15 \cdot 10 = 300$



5. Bog'ga 1 200 ta gul ekildi. Shundan 950 tasi atirgul, qolganlari esa moychechak. Moychechaklar har bir gulpushtiga 25 tadan ekildi. Nechta gulpushti hosil bo'ldi?



Atirgullar - 950 ta	} 1200 ta
Moychechaklar - ? ta, (?) gulpushtiga 25 tadan	



6. Masalalarga doir **ifodalar** yozing. Ularning qiymatini qanday qulay usulda hisoblash mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.

a) Bozorda shaftoli uchun 68 000 so'm, uzum uchun 39 000 so'm, olma uchun esa 32 000 so'm to'landi. Mevalar uchun jami necha so'm to'landi?

b) Mol go'shti uchun 230 000 so'm, tovuq go'shti uchun 190 000 so'm to'lash kerak edi. Sotuvchi 30 000 so'm chegirma qildi. Xaridor necha so'm to'ladi?

d) Onaning hamyonida 900 000 so'm bor edi. Avval u 165 000 so'mga futbolka, so'ng 135 000 so'mga shim sotib oldi. Onaning hamyonida qancha pul qoldi?



7. Quyidagi mahsulotlarning narxlariga qarab, har bir xaridning **umumiy qiymatini** aniqlang.



1 kg mol go'shti
158 000 so'm




1 kg sabzi
5 000 so'm



1 l yog'
24 000 so'm



1 kg kartoshka
8 000 so'm



10 ta tuxum
15 000 so'm



1 kg piyoz
7 000 so'm

a)



3 kg mol go'shti
5 kg kartoshka
2 l yog'

b)



2 kg piyoz
30 ta tuxum
3 kg sabzi



8. Tenglamalarni yeching.

a) $x + 427 = 900 - 45$

b) $y - 327 = 265 : 5$

9. Oralaridagi masofa 846 km bo'lgan ikki shahardan bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi. Agar ulardan biri 324 km, ikkinchisi esa 286 km yo'l bosgan bo'lsa, poyezdlar orasida qancha masofa qoladi?

